

«Rubicon Wireless Communication» AJ

Abonentlarning shaxsga doir ma’lumotlariga ishlov berish siyosati

1. ATAMALAR VA QISQARTMALAR

Atama	Ma'nosi
Abonent	ommaviy oferta shartlarini qabul qilish orqali telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Operator bilan shartnomani tuzgan jismoniy shaxs.
Aloqa vositalari	elektr aloqa xabarlarini shakllantirish, qabul qilish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va yetkazib berishda foydalaniladigan texnik va dasturiy vositalar, shuningdek aloqa xizmatlarini ko'rsatish yoki aloqa tarmoqlarining ishlashini ta'minlashda foydalaniladigan boshqa texnik va dasturiy vositalar.
Axborot	manbasi va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar, shaxslar, predmetlar, faktlar, hodisalar, voqealar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar.
Axborot xavfsizligi (AX)	axborot va axborot tizimlarini ruxsatsiz kirish, foydalanish, oshkor qilish, o'zgartirish, yaxlitligini buzish, yo'q qilish yoki boshqa tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Axborot xavfsizligining asosiy maqsadi — axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va foydalanish imkoniyatini ta'minlash.
Axborot tizimi	qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va axborotni vizuallashtirish maqsadida axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish va tarqatish uchun mo'ljallangan o'zaro bog'liq komponentlar majmui bo'lib, unga apparat vositalari (hardware), dasturiy ta'minot (software), ma'lumotlar bazalari, telekommunikatsiya tizimlari, tartib-taomillar va inson resurslari kiradi.
Axborot texnologiyalari	axborotni yig'ish, saqlash, qayta ishlash, uzatish va undan foydalanishga qaratilgan jarayonlar, usullar va vositalar majmui. Ushbu texnologiyalar ma'lumotlarni boshqarish va qayta ishlash, aloqa ta'minoti hamda qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash uchun kompyuterlar, dasturiy ta'minot, tarmoq infratuzilmalari va boshqa raqamli qurilmalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.
Maxfiy axborot	foydalanish huquqi qonunchilikka muvofiq cheklangan axborot.
Mobil ilova	Operatorning mobil qurilmalar uchun mo'ljallangan dasturiy ta'minoti bo'lib, xizmatlarni olish, ularni boshqarish hamda Operator bilan elektron shaklda o'zaro aloqani amalga oshirish uchun mo'ljallangan.
Operator	«Rubicon Wireless Communication» AJ
Shaxsga doir ma'lumotlar	elektron, qog'oz va (yoki) boshqa moddiy tashuvchida qayd etilgan, muayyan jismoniy shaxsga taalluqli yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi axborot.
Shaxsga doir ma'lumotlarga avtomatlashtirilgan ishlov berish	shaxsga doir ma'lumotlarga inson ishtirokisiz kompyuterlar, dasturlar va boshqa texnik vositalar yordamida ishlov berish bo'lib, u avtomatlashtirilgan tizimlar orqali ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, o'zgartirish, uzatish va o'chirishni o'z ichiga oladi.
Shaxsga doir ma'lumotlar subyekti	shaxsga doir ma'lumotlar tegishli bo'lgan jismoniy shaxs.
Operator sayti	xizmatlar ko'rsatish, Operator faoliyati va yangiliklari haqida axborot berish hamda Abonentlar bilan o'zaro aloqani amalga oshirish uchun foydalaniladigan rasmiy veb-resurs.

2. HUJJATNING MAQSADI

Mazkur Abonentlarning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish siyosati (keyingi o'rinlarda — Siyosat) Abonentlarning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishning prinsiplari, qoidalari va tartibini belgilaydi. Siyosat shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash, shuningdek, shaxsga doir ma'lumotlar subyektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida ishlab chiqilgan.

3. QO'LLANISH SOHASI

- 3.1. Mazkur Siyosat telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma (keyingi o'rinlarda — Shartnoma) tuzilishi chog'ida Abonent tomonidan taqdim etilgan, Operatorga murojaat qilish jarayonida uzatilgan, xizmatlar ko'rsatish jarayonida Operator tomonidan olingan, shuningdek Abonent tomonidan shaxsiy kabinet va mobil ilovaga kiritilgan barcha shaxsga doir ma'lumotlarga nisbatan tatbiq etiladi.
- 3.2. Mazkur Siyosat Operatorning barcha bo'linmalari va barcha xodimlari tomonidan majburiy ravishda qo'llaniladi.

4. UMUMIY QOIDALAR

- 4.1. Siyosat shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va himoya qilishning asosiy prinsiplarini tartibga soluvchi ochiq hujjat hisoblanadi.
- 4.2. Mazkur Siyosat uchinchi shaxslarga tegishli bo'lgan axborot resurslarida yig'ilgan ma'lumotlarga, shuningdek Abonent aloqa tarmoqlarimizdan foydalanish jarayonida mustaqil ravishda uchinchi shaxslarga taqdim etgan ma'lumotlarga nisbatan tatbiq etilmaydi. Uchinchi shaxslarning axborot resurslari shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni o'z maxfiylik siyosatlariga muvofiq tartibga solishi mumkin. Operator Abonent tomonidan Operator xizmatlaridan foydalangan holda uchinchi shaxslar tomonidan yuborilgan nomaqbul qisqa matnli yoki boshqa xabarlarni olganligi uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 4.3. Mazkur Siyosat ommaviy hujjat hisoblanadi va Operatorning rasmiy veb-saytida hamda mobil ilovasida erkin foydalanish uchun joylashtiriladi. Abonentlar Siyosat bilan istalgan vaqtda tanishishlari mumkin. Operator qonunchilik yoki ichki tartib-taomillar yangilanganda Siyosatga o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi hamda Siyosatning amaldagi tahririni veb-saytda majburiy ravishda joylashtiradi.

5. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISHNING MAQSADLARI

- 5.1. Operatorning Abonentlarning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishdagi maqsadlari quyidagilardan iborat:

- 5.1.1. telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish;
- 5.1.2. Operatorning xizmatlari, shu jumladan Shaxsiy kabinet va mobil ilova bilan o'zaro hamkorlik jarayonida Abonentni ro'yxatdan o'tkazish va identifikatsiya qilish;
- 5.1.3. qayta aloqa ta'minlash, balans, qarzдорlik va texnik ishlar to'g'risida xabardor qilish, shuningdek Abonentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatish;
- 5.1.4. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini bajarish, shu jumladan vakolatli organlarning qonuniy so'rovlariga muvofiq axborot taqdim etish;
- 5.1.5. ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini tahlil qilish, monitoring qilish va takomillashtirish, shuningdek veb-sayt va ilovalarda foydalanuvchi tajribasini shaxsiylashtirish;
- 5.1.6. xabarnomalar, yangiliklar va takliflarni, shu jumladan marketing faoliyati doirasida yuborish;
- 5.1.7. mazkur Siyosatda bevosita nazarda tutilgan boshqa maqsadlar, agar ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq bo'lsa hamda Abonentlarning huquqlari ta'minlangan bo'lsa.

6. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH PRINSIPLARI

Mazkur Siyosatda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun Operator quyidagi prinsiplarga amal qiladi:

- 6.1. shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlari va usullarining qonuniyligi;
- 6.2. shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi va himoyalanganligini ta'minlash;
- 6.3. ma'lumotlarni yig'ishni minimallashtirish;
- 6.4. shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishning shaffofligi;
- 6.5. ma'lumotlardan foydalanishni hisobga olish va ularga kirishni nazorat qilish;
- 6.6. shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish prinsiplari talablariga rioya etilishi uchun javobgarlik.

7. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR TOIFALARI

- 7.1. Operator tomonidan qayta ishlanadigan shaxsga doir ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar, aniq maqsad hamda vaziyatdan kelib chiqib, jumladan quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:
- familiya, ism va otasining ismi;
 - aloqa ma'lumotlari (telefon raqami, elektron pochta manzili va boshqalar);
 - shartnoma tuzishda ko'rsatilgan ma'lumotlar (tarif rejasi, abonent raqami, abonent identifikatori);
 - Abonentning (foydalanuvchining) veb-sayt yoki mobil ilovadagi harakatlariga oid ma'lumotlar (cookie fayllari, IP-manzil, qurilma haqidagi ma'lumotlar);
 - tegishli xizmatlardan foydalanilganda joylashuvga oid ma'lumotlar;
 - Operator xizmatlaridan foydalanish jarayonida shaxsga doir ma'lumotlar subyekti tomonidan taqdim etilgan boshqa ma'lumotlar.
- 7.2. Qayta ishlanadigan shaxsga doir ma'lumotlarning aniq tarkibi va hajmi Abonentning Operator bilan o'zaro munosabatlarining xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

8. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISHGA ROZILIK OLISH TARTIBI

- 8.1. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish Abonentning roziligi asosida amalga oshiriladi. Shartnomani tuzish va bajarish uchun zarur bo'lgan hajmda shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik berish Operator tomonidan xizmatlar ko'rsatishning majburiy sharti hisoblanadi.
- 8.2. Abonentning shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga roziligini olish tartibi Shartnoma, Ro'yxatdan o'tkazish blankasi, Shaxsiy kabinet va mobil ilovada ro'yxatdan o'tish (identifikatsiya qilish) tartib-taomillari, shuningdek Operatorning boshqa hujjatlari bilan belgilanadi. Bunday rozilik berilgan paytdan boshlab Operator mazkur Siyosat hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hajm va maqsadlarda Abonentning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishga haqli hisoblanadi. Abonentlarning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish siyosatining amaldagi tahriri Operatorning rasmiy veb-saytida va mobil ilovasida erkin foydalanish uchun joylashtiriladi.
- 8.3. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish Operatorning rasmiy veb-sayti, Shaxsiy kabineti va mobil ilovasida ro'yxatdan o'tish jarayonida, shu jumladan texnik ma'lumotlarni (IP-manzil, brauzer turi, qurilma haqidagi ma'lumotlar, cookie-fayllar va boshqa identifikatorlar) yig'ishni o'z ichiga olgan holda, Abonentlarning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish siyosati hamda Cookie-fayllardan foydalanish siyosatiga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

9. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH TARTIBI

- 9.1. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga qat'iy muvofiq amalga oshiriladi.
- 9.2. Operator shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq ham avtomatlashtirilgan, ham avtomatlashtirilmagan shaklda amalga oshiradi.
- 9.3. Abonentlarning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish mazkur Siyosatning 7-bo'limida ko'rsatilgan maqsadlarda, shuningdek Abonent tomonidan Operatorning veb-sayti, Shaxsiy kabineti va mobil ilovasining ayrim servislaridan foydalanilganda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq uning roziligi asosida amalga oshiriladi.
- 9.4. Operator shaxsga doir ma'lumotlarning transchegaraviy uzatilishini amalga oshirmaydi.
- 9.5. Mobil ilova, Shaxsiy kabinet yoki boshqa elektron servislar orqali Shartnomani masofadan turib (elektron shaklda) tuzishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq vakolat berilgan uchinchi shaxslarning axborot tizimlaridan foydalangan holda biometrik identifikatsiya (Face ID) tartib-taomili qo'llanilishi mumkin.
 - 9.5.1. Operator bunday identifikatsiya jarayonida olingan Abonentning biometrik shaxsga doir ma'lumotlarini yig'ish, qayd etish, tizimlashtirish, saqlash, ulardan foydalanish yoki boshqa tarzda qayta ishlashni amalga oshirmaydi hamda Abonentning yuz tasvirlari, biometrik shablonlari yoki boshqa biometrik ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas.
 - 9.5.2. Biometrik identifikatsiyadan o'tish natijalari bo'yicha Operatorga faqat tekshiruv natijasi (muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz identifikatsiya) to'g'risidagi, Shartnomani tuzish va bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumot taqdim etiladi.

10. ABONENTLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 10.1. Abonent quyidagi huquqlarga ega:
 - 10.1.1. Operatorlarda o'zining shaxsga doir ma'lumotlari mavjudligi hamda ularning tarkibi to'g'risida ma'lumot olish. Abonentning shaxsga doir ma'lumotlari mavjudligi va ularning tarkibi to'g'risidagi so'rovlari faqat Abonent shaxsini tasdiqlash va uchinchi shaxslarning ma'lumotlarga noqonuniy kirishini oldini olish uchun yetarli darajada identifikatsiya qilingandan so'ng Operator tomonidan ko'rib chiqiladi;

- 10.1.2. o'z shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlash maqsadlari va usullari to'g'risida ma'lumot olish;
 - 10.1.3. o'z shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishga rozilik berish hamda bunday rozilikni qaytarib olish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;
 - 10.1.4. o'z shaxsga doir ma'lumotlariga nisbatan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha vakolatli davlat organiga yoki sudga murojaat qilish.
- 10.2. Abonent quyidagilarga majbur:
- 10.2.1. to'g'ri va dolzarb shaxsga doir ma'lumotlarni taqdim etish;
 - 10.2.2. shaxsga doir ma'lumotlarning dolzarbligini ta'minlash maqsadida ularning o'zgarishi haqida Operatorni xabardor qilish.

11. OPERATORNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 11.1. Operator quyidagi huquqlarga ega:
- 11.1.1. agar shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga berilgan rozilik qaytarib olingan bo'lsa va bunday ishlov berish shartnoma shartlarini bajarish uchun zarur bo'lsa, Abonentga xizmatlar ko'rsatishni vaqtincha to'xtatib turish yoki tugatish;
 - 11.1.2. Abonentga xizmatlar ko'rsatishni, shaxsga doir ma'lumotlar o'zgartirilgan yoki to'ldirilgan bo'lib, Abonent bu haqda Operatorni xabardor qilmagan hollarda, vaqtincha to'xtatib turish yoki tugatish.
 - 11.1.3. xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlash, ularning sifatini oshirish hamda Abonentlar oldidagi majburiyatlarni bajarish maqsadida shartnomalar tuzilgan uchinchi shaxslarga shaxsga doir ma'lumotlarni uzatish. Ma'lumotlarni uzatish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etgan holda, maxfiylikni ta'minlash va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rilgan sharoitda amalga oshiriladi;
 - 11.1.4. shaxsga doir ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hollarda va tartibda faqat vakolatli davlat organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xavfsizlik organlari, davlat muassasalari hamda boshqa vakolatli organlarga taqdim etish.

11.2. Operator quyidagilarga majbur:

- 11.2.1. Abonentlarning shaxsga doir ma'lumotlarini ruxsatsiz kirish, sizib chiqish, o'zgartirish va tarqatishdan himoya qilishni ta'minlash;
- 11.2.2. shaxsga doir ma'lumotlarga faqat belgilangan maqsadlarda va qonuniy asoslarda ishlov berish;
- 11.2.3. O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchiligi talablariga muvofiq Abonentlarning murojaatlari va so'rovlariga javob berish;
- 11.2.5. yangi ma'lumotlarning ishonchliligi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda shaxsga doir ma'lumotlarni o'zgartirish yoki to'ldirish, bunday o'zgartirish yoki to'ldirishni amalga oshirishning imkoni bo'lmagan hollarda esa ularni yo'q qilish hamda bu haqda shaxsga doir ma'lumotlar subyektini xabardor qilish;
- 11.2.6. shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish shartlari buzilganligi to'g'risida ma'lumot mavjud bo'lgan taqdirda, ularni vaqtincha to'xtatib turish.

12. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH CHORALARI

- 12.1. Operator shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish jarayonida Abonentlarning shaxsga doir ma'lumotlarini ruxsatsiz kirish, sizib chiqish, yo'q qilish, o'zgartirish, bloklash, nusxa ko'chirish, oshkor etish, tarqatish hamda boshqa noqonuniy harakatlardan himoya qilish maqsadida qonunchilik talablariga muvofiq huquqiy, tashkiliy va texnik choralarni ko'radi.
- 12.2. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bunday choralar jumlasiga quyidagilar kiradi:
 - shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni tashkil etish hamda ularning xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ul shaxslarni tayinlash;
 - shaxsga doir ma'lumotlarga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasini cheklash;
 - shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish va ularni himoya qilish masalalari bo'yicha ichki lokal normativ hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
 - shaxsga doir ma'lumotlarga bevosita ishlov beruvchi xodimlarni qonunchilik talablari hamda ichki tartib-qoidalar bilan tanishtirish va ularni o'qitish;

- shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish choralarining muntazam nazoratini amalga oshirish;
- shaxsga doir ma'lumotlarning moddiy tashuvchilariga ruxsatsiz kirishni istisno etuvchi hamda ularning saqlanishini ta'minlovchi shartlarga rioya qilish.

13. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNI QAYTARIB OLISH, O'ZGARTIRISH, TO'LDIRISH VA YO'Q QILISH

- 13.1. Operator shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlariga muvofiq qayta ishlanadigan ma'lumotlarning aniqligi, to'liqligi va dolzarbligini ta'minlash bo'yicha choralar ko'radi.
- 13.2. Shaxsga doir ma'lumotlarni yo'q qilish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Shaxsga doir ma'lumotlar Operator tomonidan quyidagi hollarda yo'q qilinadi:
- shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga berilgan rozilik qaytarib olingan taqdirda;
 - shartnoma bekor qilinganda;
 - sudning qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo'lganda.
- 13.3. Shaxsga doir ma'lumotlarni yo'q qilish ularni saqlash majburiyati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bevosita belgilangan hollarda amalga oshirilmaydi. Xususan, Operator Abonentlarning ayrim toifadagi ma'lumotlari va shaxsga doir ma'lumotlarini (jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda: shartnoma to'g'risidagi ma'lumotlar, ko'rsatilgan telekommunikatsiya xizmatlarining tafsilotlari, hisob-kitob va identifikatsiya ma'lumotlari) quyidagi hollarda saqlashga majburdir:
- 13.3.1. buxgalteriya, soliq, fuqarolik arxiv va jinoyat qonunchiligi bo'yicha majburiyatlarni bajarish maqsadida talab etilganda;
- 13.3.2. shaxsga doir ma'lumotlar, telekommunikatsiyalar, axborotlashtirish, kiberxavfsizlik sohasidagi qonunchilik hamda aloqa va axborot xavfsizligi sohasini tartibga soluvchi boshqa maxsus normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan quyi normativ hujjatlar talablarida nazarda tutilgan hollarda;
- 13.3.3. vakolatli davlat organining rasmiy so'rovi mavjud bo'lganda yoki tekshiruv, sud jarayoni yoxud qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa asoslar mavjud bo'lganda.

Bunday hollarda Operator shaxsga doir ma'lumotlarni tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan muddat davomida saqlaydi, bu esa ishlov berish maqsadlariga erishilganligi, belgilangan saqlash muddatlarining tugashi yoki rozilikning qaytarib olinishi holatlaridan qat'i nazar amalga oshiriladi.

- 13.4. Abonent shaxsga doir ma'lumotlarini o'zgartirish, to'ldirish yoki yo'q qilish bo'yicha so'rovni Operator tomonidan belgilangan aloqa kanallari, jumladan xizmat ko'rsatish ofislari orqali

yuborishi mumkin. So'rov yuborishda Abonent qonunchilik talablariga muvofiq o'zgartirish, to'ldirish yoki yo'q qilish huquqini tasdiqlovchi tegishli dalillar va hujjatlarni taqdim etishi shart. Operator so'rovlarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqadi va Abonentni uning so'rovi natijalari haqida xabardor qiladi.

13.5. Shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga berilgan rozilik Operator tomonidan belgilangan shakldagi ariza (mazkur Siyosatning 1-ilovasi) orqali qaytarib olinadi. Operator Abonentni identifikatsiya qilish hamda ariza berish vakolatini tasdiqlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni talab qilish huquqiga ega. Identifikatsiya jarayoni yakunlanmaguncha ariza ko'rib chiqilmasdan qoldirilishi mumkin. Rozilik qaytarib olingan taqdirda, agar ishlov berish faqat shaxsga doir ma'lumotlar subyektining roziligiga asoslangan bo'lsa, Operator shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni to'xtatadi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

13.6. Mazkur huquqlar Abonent tomonidan Operatorning qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish, yozma yoki elektron murojaat yuborish orqali, Operatorning rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan manzillar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin.

13.6.1. Murojaat shaxsga doir ma'lumotlar subyektini identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ma'lumotlarni, jumladan familiya, ism, otasining ismi (agar mavjud bo'lsa), elektron pochta manzili, abonent raqami hamda murojaatni ko'rib chiqish uchun zarur boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim.

13.6.2. Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish va ruxsatsiz kirishning oldini olish maqsadida Operator murojaat etuvchining shaxsini tasdiqlash uchun qo'shimcha ma'lumotlar yoki hujjatlarni talab qilishga haqli.

Abonentlarning shaxsga doir ma'lumotlariga oid murojaatlari Operator tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartib va muddatlarda ko'rib chiqiladi.

14. YAKUNIY QOIDALAR

14.1. Operator mazkur Siyosatni qonunchilik talablariga muvofiqlashtirish, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish jarayonidagi o'zgarishlarni aks ettirish yoki ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi

14.2. Siyosatga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar Operatorning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi lozim hamda, agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ular joylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.



14.3. Mazkur Siyosat bilan tartibga solinmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.